

YANGI MILLIY UYG'ONISH DAVRI VA UYG'ONISH ADABIYOTINING BUYUK VAKILI: FITRAT TADQIQOTLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARI

Xudayberdiyeva Moxichehra Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti

3-bosqich Yurisprudensiya yo'nalishi 5/2-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14742826>

Annotatsiya. 1938-yilning shu kunida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, yana faoliyati aksariyat jamoatchilikka noma'lum qolayotgan yuzdan oshiq o'zbek ziyolilari o'z vatanining poytaxti Toshkentda kommunistlar rejimi rahbari Stalin tasdiqlagan hujjatga muvofiq otib tashlangan. Qatl etilganlarning barchasi milliy uyg'onish harakati faollari, jadidchilar edi. Turkistonni bosqindan, qoloqlik botqo'g'idan, arosatdan ozod qilishga bel bog'lagan, buni qurolli qo'zo'alon emas, o'qish, ta'lim sifati bilangina amalga oshirishga shubha qilmagan ma'rifatparvarlar "xalq dushmani" tamo'asi ostida otuvga hukm qilindi.

Kalit so'zlar: Xalq oo'zaki ijodi, Uyo'onish davri, Uyo'onish adabiyoti. Jadidlar xotirasi.

THE NEW NATIONAL AWAKENING PERIOD AND THE GREAT REPRESENTATIVE OF AWAKENING LITERATURE: EXAMPLES OF FOLK ORAL CREATION IN THE STUDIES OF NATURE

Abstract. On this day in 1938, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cholpon, Abdulla Qadiri, and more than a hundred other Uzbek intellectuals whose activities remain largely unknown to the public were shot in Tashkent, the capital of their homeland, according to a document approved by Stalin, the leader of the communist regime. All those executed were activists of the national revival movement, Jadidists. Enlightenmentists who decided to liberate Turkestan from invasion, backwardness, and oppression, and had no doubt that this could be done not by armed uprising, but by the quality of education and study, were labeled "enemy of the people" was sentenced to death under.

Key words: Folk art, Renaissance period, Renaissance literature. Memory of Jadids.

НОВЫЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПЕРИОД ПРОБУЖДЕНИЯ И ВЕЛИКИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ ЛИТЕРАТУРЫ ПРОБУЖДЕНИЯ: ПРИМЕРЫ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В ИССЛЕДОВАНИЯХ ПРИРОДЫ

Аннотация. В этот день в 1938 году в Таишкенте, столице их родины, согласно документу, утвержденному Сталиным, были расстреляны Абдурауф Фитрат, Абдулхамид Чолпон, Абдулла Кадыри и более сотни других узбекских интеллектуалов, чья деятельность остается в значительной степени неизвестной общественности. лидер коммунистического режима. Все казненные были активистами движения национального возрождения, джадидистами. Просветители, решившие освободить Туркестан от

нашествия, отсталости и гнета и не сомневавшиеся в том, что это можно сделать не вооруженным восстанием, а качеством образования и учебы, были заклеены как «враги народа», приговорены к смертной казни пост.

Ключевые слова: Народное искусство, период Возрождения, литература Возрождения. Память о джадидах.

Kirish: Alloh bergan ne'matlarning eng buyugi aqldir, shu aql odamlarni maxluqlar orasida mukarram va musharraf qilgandir. Xudovandi taborak va taolo bizga aqlni haqni botildan manfaatni zarardan ajrata olish uchun, nimaiki zarar va botil bo'lsa tark etish uchun bergan. Bas, sen aql-u donishning rahnamoligida foydagaerishsang, u foydani (aql bergan) Allohdan ko'r.

Zero, foyda aql mahsuli bo'lib, uni Alloh senga baxshida etgandir. Agar aqlga xilof yo'lga yurib zarar ko'rsang, u zararni o'zingdan ko'r. Zero, sen Alloh rahnamo qilgan aqlga muxolif bo'lding va shundan zarar topding. Abdurauf Fitrat 1886-yili Buxoro shahrida tug'ilgan, uning otasi Abdurahimboy o'z zamonasining ziyoli boylaridan bo'lgan. Abduraufning onasi Mustafibibi o'qimishli ayol bo'lib, farzandlar ta'limi hamda tarbiyasi bilan ko'proq o'zi masho'ul bo'lishga to'g'ri kelgan. Nozikta'b onasining izchil ta'siri ostida Abduraufda juda yoshligidanoq she'r zavqi uyo'ngan. Abduraufning taxallusi Fitrat bo'lib, bu so'zning Luo'aviy ma'nosi "yaratmoq"dir.

Davr tazyiqi kuchayib, uning zamondoshlari o'z asarlariga bir necha taxallus va laqablar bilan imzo chekishga majbur bo'lganlarida ham adib yolo'iz shu taxallusni qo'llagan.

Hatto rasmiy idoralardagi xizmat chog'ida va xavfsizlik qo'mitasining hujjatlarida ham mana shu nom ba'zan familiya o'rnida qo'llanilgan. Abdurauf Fitrat dastlab ibtidoiy maktabda so'ngra Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil ko'rgan. Talabalik chog'ida mavjud madrasa tahsili bilan cheklanmay, zamonining taraqqiyparvar ulamolaridan o'zi mustaqil ravishda saboq olgan.

Fitrat hayotining o'ta sarmazmun pallalaridan biri uning Istanbul davridir. O'zbek fitratshunoslarining maqola va tadqiqotlarida shu davrga oid sanalar juda chalkash ko'rsatilgan.

Hatto bu voqealarning shohidi S.Ayniy Fitratning xorijda bo'lgan davrini bir paytda 1910-yil deb aytsa, boshqa bir o'rinda 1911-yilni¹ ko'rsatadi. Nisbatan ishonchli manbalardan biri sifatida XX asrning boshlarida Turkistonda yashagan olim va siyosiy arbob Zaki Validi To'g'onning xotiralariga murojaat qilamiz. Ularda qayd etilishicha 1910-yilda Buxoroda "Tarbiati Atfol" jamiyati tuzilgan bo'lib, u yiliga xayriya yo'li bilan bir necha talabani xorijga o'qish uchun yuborib turgan va u yerda o'z shu'basi (filiali)ni ochishga musharraf bo'lgan. Bu shu'ba "Buxoro tamimi maorif jamiyati" nomi bilan rasmiy jamiyat tusini olgan. 1910-yilda Eron yo'li bilan

¹ S.Ayniy Tarixi inqilobi Buxoro. B.83,101.

Konstantinopolga kelgan shoir Fitrat bilan Muqimiddin hamda Rossiya yo‘li orqali kelgan Usmonxo‘ja, o‘uljali Abdulaziz, Sodiq Ashur o‘o‘li bu jamiyatning quruvchilari edilar”²

Fitrat qo‘shni yurtga butun dunyoga ta‘rifi ketgan inqilobchi yoshlar harakatidan keyin borgan edi. Shubhasiz, u bu harakat natijalaridan saboq olgan, uning tashabbuskorlari bilan hamsuhbat bo‘lgan. Xorijiy fitratshunoslardan birining fikriga ko‘ra, shu mamlakatdagi ma‘rifatparvarlik harakati Fitratga ta‘sir etmasdan qolmadi. U muallimlar gimnaziyasida o‘qir ekan, yosh turklarning faoliyatiga qiziqib qaradi va ularning harakat usullarini o‘rgana boshladi.

Fitrat xorijdagi talabalik vaqtidayoq o‘zining boshlano‘ich asari “Munozara”ni yozdi³.

Darhaqiqat, Fitratning “Munozara” asarida shunday satrlar bor: “Ushbu zamonda har bir millatparvar olim o‘zining hamjinsi va hamnav‘ining manfaati va va saodati yo‘lida tekinga xizmat qilur. Hatto bu yo‘lda mol va jonini ayamayturo‘on chin odamlar oz emasdurlar.

Chunonchi, tasavvur qilingiz: Anvarbek- Niyozbeklar usmonli mashrutasi uchun qancha fidokorlik qildilar. Bu zotlarning-da muddaosi o‘z millatining osoyishi va saodatidan boshqa ne edi?”⁴ Shu bilan birga, Fitrat xorijda nashr etilayotgan va o‘ziga madrasa talabalaridan o‘ziga yaxshi tanish bo‘lgan “Turk yurdu”, “Sirotul-mustaqim” va “Tarifi muslimin” kabi majalla va jaridalar hamkorlik qila boshladi. Ayniqsa, ulug‘ turk shoiri Mehmet Akif muallifligida nashr etilayotgan “Sirotu-l-mustaqim” jaridasi bilan faol hamkorlikni tasdiqlovchi manbalar anchagina.

Jaridaning 1911-1924-yillardagi sonlarida Buxoro hayotiga oid o‘nlab maqola va xabrlar berilgan. Ularning ko‘pchiligi buxorolik muxbir O‘iyosiddin Hasaniy qalamiga mansub bo‘lsa ham, ular, shubhasiz, Fitrat tahlilidan o‘tganini anglash qiyin emas. Bu maqola Mehmet Akifning xotiralari va turk olimi SH.O.Fuodning “Turk bosin tarixi”(1960) kitobini eslash kifoya.

“Ta‘rifi muslimin” majallasida Fitratning “Buxoro vaziri Nasrullohbek Parvonachi hazratlarina ochiq maktub”i e‘lon qilinadi. Fors tilida chop qilingan bu maktubda “qora xabarlar va o‘t orasida qolg‘an parishonhol ahli vatan”ning dardi bayon qilinib, uni yengillatish choralari ko‘proq tojkor Hazrat va uning vaziri Nasrullohbekka bo‘liq ekani aytilish bilan birga:”Har qancha ko‘z va quloo‘ingizni berkitsangiz ham, bu qadimiy islom millatining faryodi va muqaddas vatanimizning xarobligiga achinmay tura olmaysiz... Millatimiz va yurtimizni shu holga keltirib qo‘ydikki, dunyoning burchagida eng qiyin kunlarda tashvish chekib yashayotgan odamlar ham bizning ahvolimizga qon yio‘lamoqdalar” kabi otashin satrlar bilan vaziri a‘zamga murojaat etiladi.

² Zeki Velidi Togan. Bugungu Turkili Turkistan ve yakin tarihi. Istnbul, 1981.B.354.

³ “Milliy Turkiston”, 1952, 80-81-son.B.13

⁴ Hindistonli bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususinda qilg‘an munozarasi. Muharriri Fitrat

Asosiy qism. 1918-yil boshida e'lon qilingan "Buxoroning holi"da yozilishicha: "Russiya inqilobi, imperatorning taxtdan tushgani, rus hukumatining xalq qo'liga ko'chdilo' Buxoro hukumatiga inqilobning haqiqati va inqilobchilarning tilaklarini bildurdi.

Inqilobchilarning himoyasiga sig'ingan yoshlardan Buxoro hukumati biram qo'rqdi". Shu ruhdan alanga olib, imkoniyatni boy bermay o'alaba sari harakat qilmoq kerakligini Fitrat tushundi va Buxoroning qorono'idan chiqishi uchun yo'l axtardi, biroq vaziyatni, rus to'ralarining zobiti tarixini yaxshi bilgan adib bu yo'lda ularga ergashib bo'lmasligini uqtirdi va, natijada, Buxoro uchun ayrica bir yo'l zarur, degan xulosaga keldi.

Fitrat "Buxoroda inqilob" turkum maqolalarida yozganidek, "Xalq og'zinda yangigina bir so'z tushub qoldi: Buxoroda hurriyat bo'lar ekan". Fitrat Buxoroning bu yo'lini belgilar ekan, avvalo, mish mishlarga aniqlik kiritmoqchi bo'ladi, ya'ni 1918-yilda yuz bergan hodisalarni tahlil qilib, xalqning ko'zini ochmoqqa va ana undan keyin bu harakatlarni inqilob sari burmoqqa niyat qiladi. Ana shu olijanob maqsad bilan yoza boshlagan risolasining boshlang'ichida "... Mana bul risolani shunlarni onglamoq uchun qo'limo'a oldim. Negaki, tilagim haqiqatni xalqo'a onglatmoqdir. Haqiqatni butun ochib onglata bilmak uchun bul risolani uch bo'lakka tartib etdim: 1) Buxoroning holi; 2) Fitna soatlari; 3) Yoshlarning tilari" (69-son). Taasufki, risolaning bosh qismi gazetadan e'lon etilgach, 1918-yilgi qonli voqealar, ya'ni Turkiston muxtoriyatining yakson qilinishi sabab "Hurriyat" yopib qo'yildi.

Fitrat populistik asarlari birgina "Hurriyat" sahifalarida aks etgan maqolalardan iborat emas. Behbudiy muharrirligida chop etilgan "Samarqand" va "oyina" kabi gazeta jurnallarda, U.Asadullaxo'jayev muharrirligida chiqan "Sadoyi Turkiston". Toshkentda bevosita Fitrat tahririda chiqqan "Tong", Buxoroda chop etilgan "Buxoroyi sharif", "Turon" va "Buxoro axbori" gazetalarida, so'ngga esa Toshkentdagi faol nashrlardan bo'lgan "Ishtirokiyun", "Maorif va o'qito'uchi" kabi ommaviy axbarot vositalarida ham Fitrat o'nlab asarlari e'lon qilingan.

Nafaqat mamlakatda, balki xorijiy nashrlarda ham Fitratning publitsistik asarlarini ko'plab uchratish mumkin. U talabalik paytlaridanoq Istanbulda chop etilgan "Turk yurti", "Sirotu-l-mustaqiyim" (To'o'ri yo'l), "Ta'rifi muslimin" ("Musulmonlar ta'riflari") kabi nashrlarda faol ishtirok etgan.

Abdurauf Fitrat "Qo'rqud ota kitobi"dan namunalar keltirar ekan, eposda boshqa qahramonlik dostonlariga o'xshash o'rinlar borligini e'tirof etadi. Majmuada eposning 3-hikoyasidan parchalar berib, izoh sifatida quyidagilarni keltiradi: "Alpomish" dostonimiz bilan juda ochiq boshlanishi bordir. Hatto ikkala dostondagi qahramon ham Boybo'ra, Boybo'ri o'g'lidir". Fitrat ta'kidlaganidek, bu ikki epos syujet va obrazlari tizimi hamda o'oz eposi bo'lishi jihatidan biribiriga juda o'xshash.

Fitrat majmuasida keltirilgan matn professor Muharram Erkin tomonidan 1986 yilda nashr ettirilgan epos matni bilan solishtirilganda, ularning aynan ekanligiga amin bo'ldik. "O'zbek adabiyoti namunalari" arab alifbosida nashr ettirilgan. Majmuadagi epos matni ham shu yozuvda berilgan. Turk tilidagi qattiq va yumshoq unlilar shakli bir xil harflar vositasida berilgan.

Shuning uchun ham har ikkala matn orasidagi farqli xususiyatlar unlilarning o'zgarishi, jarangli va jarangsiz undoshlarning almashinuvida ko'zga tashlanadi, xolos. Bu holatni esa yuqorida ta'kidlaganimizdek, matnni arab alifbosida berilganligida deb izohlash mumkin. Fitrat majmuasida keltirilgan quyidagi parchalar "Bir kun. Qamg'on o'g'li Xon Boyundur yerindan turmishdi. (Shomi kunliki) yer yuzina dekdirmishdi. Ola sayvoni ko'k yuzina oshonmishdi" Muharrem Ergin nashrida quyidagicha beriladi: "Bir gun. Qam xon o'li Boyindir yerinden turmish-idi. Shami gunluga yir yuzine dekdirmish-idi. Ala sayvoni go'k yuzine ashanmish-idi".

Fitrat majmuadagi matnlarning ba'zi o'rinlarini qisqartirib beradi. Biroq bu qisqartirishlar u qadar ahamiyatli emas. Majmuadagi matnni kuzatish jarayonida Fitratning o'rganayotgan asarga ijodiy yondashganligiga guvoh bo'lish mumkin. Grammatik qoidalarni bilgan olim *var idi, do'shanmish idi, demish idi* kabi so'zlarni qo'shib *vardi, do'shanmishdi, demishdi* shakllarida keltiradi. Ba'zi o'rinlarda matnni ulash maqsadida va boo'lovchisini qo'shib ishlatadi.

Majmuadagi "Qo'rqud ota kitobi"dagi ilk matn Darsaxonning farzandli bo'lishi voqealarini aks ettirgan parchalar bo'lib, keyingi namuna "Uchinchi hikoya" sarlavhasi ostida berilgan Boybo'ra haqidagi voqealardir.

Ba'zi o'rinlarda matnlar orasida leksik farq ham ko'zga tashlanadi. Fitrat majmuasida keltirilgan parchadagi *ayvon* so'zi Muharrem Erkin nashrida *ivin* shaklida qo'llangan. Muharram Erkin matnidagi *Qaba o'kchem altina solayinmi* misrasiga qo'shimcha ravishda Fitrat (*qaba o'kcha taqim*) jumlasini qo'shgan. Bu kabi leksik farqlar juda oz. Matnlar aynan. Selim Xanji o'oli tomonidan e'lon qilingan matn esa bu ikki matndan tubdan farq qiladi. Hikoyalar mazmuni bir xil bo'lsa-da, matniy farqlar juda ko'p. Professor Muharram Erkin kitobning so'zboshisida doston Drezden nusxasi asosida nashr ettirilganini ta'kidlab o'tgan. Fitrat majmuasida keltirilgan matn bilan ushbu matn bilan bir xil ekanligini hisobga olib, Fitrat ham aynan shu nusxadan foydalangan, degan xulosaga kelish mumkin. Chunki Drezden nusxasi adabiyotshunos olimlar tomonidan eng mukammal nusxa deya tan olingan.

XULOSA: Qahramonlik dostonlari sirasiga kiruvchi "Alpomish" ilk yozib olingan davridayoq olimlar va kitobxonlar diqqat markazida bo'ldi. Doston ilk bor Fozil Yo'ldosh o'oli hamda Hamroqul baxshilardan O'zi Olim tomonidan yozib olingan bo'lib, 1922 yilda "Bilim o'chog'i" jurnalida nashr ettirilgan. 1928 yilga kelib folklorshunos olim Hodi Zarif Fozil Yo'ldosh o'olidan dostonning yana bir variantini yozib olgan.

Dostonning keyingi namunalari Berdi baxshidan Abdulla Alaviy, Saidmurod Panoh o‘o‘lidan Shamsi Murodov tomonidan yozib olingan. Doston yozib olingan ilk davrlardan boshlab ularni o‘rganish, matnlarni solishtirish, tahlil qilish, o‘oyaviy hamda matniy farqlanishlarni o‘rgana boshlashdi. Bu izlanishlarning ilk debochasi sifatida Abdurauf Fitrat tadqiqotlarini taqdim qilish mumkin. Fitrat “Alpomish” dostoni tadqiqiga kirishishdan oldin deyarli har bir asarida el adabiyoti hamda yozma adabiyot tushunchalarini farqlashga, tarkibidagi namunalarning mohiyatiga alohida e‘tibor qaratadi.

Xususan, el va yozma adabiyot farqini ularning muallifi mavjud yoki mavjud bo‘lmasligida deb baholash biryoqlama (shakliy holat) bo‘lishini, ulardagi asosiy farq ruhida ekanligi ta’kidlaydi. Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarida sochim va saj’ tushunchalarini izohlar ekan, ularning asosiy namunalari sifatida “Alpomish” dostonidan parchalar keltirgan.

Dostonning yana bir matni Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasidan o‘rin olgan. Dostonning boshlang‘ich qismi O‘ozi Olimning Hamroqul baxshi va Fozil Jiravdan yozib olgan variantidir. “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘o‘lidan 1922 yilda yozib olingan qismi yo‘qolgan. Shu munosabat bilan u haqda to‘liq bir fikr yuritib bo‘lmaydi. Doston 1928 yilda qayta yozib olingan. Qayta yozilgan matnda 1922 yildagi asosiy matn saqlanib qolgan.

Ular o‘rtasidagi farq 1928 yil variantida tasvirning kengayishi, misralarning qisqarishi, ularning boshqacha talqin qilinishi, diniy tushunchalarning kamayishi bilan izohlanadi.

Fitrat o‘z majmuasida dostonning boshlano‘ich qismini Fozil Yo‘ldosh variantidan keltiradi. Bu variant mustaqillik yillarida 1998 yilda Hodi Zarif hamda To‘ra Mirzaev tahriri ostida nashr etildi. Fitrat majmuasida keltirilgan parchada dostonning boshlang‘ich qismi, biylarning farzandsizligidan boshlab, Boysarining zakot sabab qalmoqlar yurtiga ko‘chib ketishi davrigacha bo‘lgan voqealari aks ettirilgan. She‘riy parchalarning aksariyat qismi qisqartirilib berilgan. Boysun-Qo‘no‘irotning qalmoq eliga jo‘nash tasviri tushirib qoldirilib, qalmoq dehqonlarinig shoh Toychaxonga arz qilish voqealari bilan majmuadagi parchalar yakunlanadi.

“O‘zbek adabiyoti namunalari”da keltirilgan parchalarning 1998 yilgi nashr bilan solishtirilganda, ular aynan bir xil ekanligiga guvoh bo‘linadi. Parchalar o‘rtasidagi farq ba’zi unli va undoshlarning o‘zgarishi, xususan, jarangli undoshlarning jarangsizlashuvi hamda matnning juda ko‘p o‘rinlarda qisqartirishlar bilan berilishida ko‘zga tashlanadi. Fitrat majmuasidagi *uruq*, *Dovonbiy*, *o‘tti*, *to‘yo‘a*, *kanglu*, *cho‘pron* kabi so‘zlar 1998 yilgi nashrda *uruo‘*, *Dobonbiy*, *o‘tdi*, *to‘yga*, *ko‘ngli*, *cho‘furon* shakllarida keltiriladi. “Bu dostonlardan biri – el adabiyoti yo‘lida tirishguchilarimizdan o‘rtoq O‘ozi Olimning 1922 yilda Toshkent va Samarqand uездlarida yashayturo‘an o‘zbeklarning mashhur oqinlari – Hamroqul baxshi va Fozil jirav Yo‘ldosh o‘g‘lining oo‘zidan yozib olgani “Alpomish” dostonidir”. Fitrat dostonning keyingi variantini tabiiy ravishda o‘z majmuasiga kiritmagan.

Fitrat majmuadagi dostonning boshlang'ich qismidan keltirilgan parchalarni Fozil Yo'ldosh hamda Hamroqul baxshidan yozib olingan, deb yozadi. Biroq ushbu parchalar Fozil Yo'ldosh variantining aynan o'zi. Hamroqul baxshi variantining to'liq matniga ega emasmiz.

Undan ayrim parchalar G'ozzi Olim Yunusov tomonidan "Bilim o'choo'i" jurnalida nashr ettirilgan. Parchada Boysari boshliq o'n ming uyli qo'no'irotlarning mollari qalmoq dehqonlari ekinlarini yeb ketishi, ularning Toychixonga arz qilishi, Surxayl kampirning sovchiligi, alplarning Barchin uchun o'zaro talashlari va Boysariga sovchilikka borishlari, Barchinning Qo'no'irotga xabar yuborishi Qaldirg'och maslahati bilan yo'lga chiqqan Alpomishning mozarotda tunashigacha bo'lgan voqealar tasvirlanadi. Fitrat majmuada dostonning har ikkala baxshi variantida bir xil boshlang'ich qismini keltiradi. Demakki, Fozil Yo'ldosh hamda Hamroqul baxshi variantlarining boshlano'ich qismi aynan bir xil degan xulosaga kelish mumkin. Dostonning so'nggi qismi Berdi baxshi tomonidan aytilgan variantdir.

El orasida Berdi baxshi nomi bilan shuhrat qozongan Berdiyori Pirimqul o'zining "Alpomish" dostoni dostonchilik an'anasining yaxshi xususiyatlarini o'zida saqlaganligi, she'riy misralarning nisbatan badiiy pishiqiligi bilan ajralib turadi. Berdi baxshidan yozib olingan "Alpomish" g'oyaviy-badiiy jihatdan boshqa variantlardan ajralib turadi. Unda samimiy yumor va hajviy ruh sezilib turadi. Ushbu variant o'zining badiiy shakli jihatidan ishqiy-romantik dostonlarga yaqin turadi. O'ziga xos lirizm, chiroyli tasvirlar, xalq qo'shiqlari she'riy bezaklarga moyillik, ba'zi tafsilotlarning jimjimador ishlash Berdi baxshi uslubining asosiy belgilaridan biridir.

Berdi baxshining "Alpomish" dostoni 1969 yilda nashr ettirilgan. Ushbu nashrda dostondagi juda ko'p o'rinlar qisqartirilgan. Bu holatni dostonning 1999 yildagi qayta nashri bilan solishtirish jarayonida ko'rish mumkin. 1969 yilgi nashrda dostondagi diniy hamda e'tiqodiy parchalar tushirib qoldirilgan. Fitrat o'z majmuasida dostonning so'ngi qismini Berdi baxshi variantidan keltiradi. Tovka oyimning yordami bilan Alpomishning zindondan qutulishi hamda Qaldirg'ochning tuya boqib yurgan holati aks etgan parchalar kichik hajmda majmuadan o'rin olgan. Ushbu parchalar 1999 yilgi nashr bilan solishtirilganda ularning aynan bir xil ekanligi kuzatildi. Farqli jihatlar yuqorida keltiriganimiz kabi unli va undoshlar o'zgarishi hamda matnning qisqartirib berilishida ko'rinadi.

Majmuadagi doston matnlari shunchaki keltirilmay olim tomonidan tushunarsiz so'zlar izohlanib, havolalarda berib o'tiladi. Olim dostonning bir o'rnida "mazgil" so'zini izohlar ekan, u aslida arabcha "manzil" so'zi ekanligi, o'zbekchalashib shu shaklda ishlatilishini ta'kidlaydi. Fitrat dostondagi Shohimardon pir obraziga alohida e'tibor qaratadi. Bu kabi islomiy obrazlar ko'pchilik dostonlarda mavjud bo'lib, olim ularning syujet tizimida o'rniga qarab ma'lum turlarga ajratadi.

Fitrat islom dini qabul qilinganidan so'ng doston syujetidagi Ali, Muhammad Hanafiy, Zaynularab, Boboravshan kabi qahramonlarning paydo bo'lishini shu bilan izohlaydi. Bu jihat dostonlar olim tomonidan ikki turga: "1. Islomiy qahramonlar qatnashgan 2. Islomiy obrazlar ishtirok etmaydigan" tarzida ajratiladi. Dostonlarning birinchi turida qahramonlar dostonning syujet tizimida ikkinchi va uchinchi darajadagi qahramonlar sifatida ishtirok etadilar. "Alpomish" dostonidagi Shohimardon pining ikkinchi-uchinchi darajadagi qahramon sifatida asarda bir ko'rinib, keyinchalik ishtirok etmasligi shu bilan izohlanadi.

Mustaqillikka kelib marhum prezident Islom Karimov jadidlar xotirasini abadiylashtirdi, Toshkentda muzey ochildi, Shahidlar xiyoboni bunyod qilindi. Ammo bundan qat'i nazar, jadidlar merosiga nisbatan xovotir tuzumni tark etmadi, ular adabiyoti mamlakatda taro'ib etilmadi, jadidlar o'oyasi qabul qilinmadi.

Iqtidordagi hukumat davriga kelib bu xavotir bir qadar bosilayotgandek ko'rinadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'qituvchilar kuni munosabati bilan o'tgan tantanada sovetlar qatl etgan jadidchilar Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlash qarorini ma'lum qildi.

Stalin qatag'oni nafaqat qiro'in, balki jadidlar timsolidagi Turkiston ozodligi ruhiyatini cho'ktirishga, yo'qotishga ham qaratilgan edi.

Ammo bu ruhiyat sharpasi Fitrat, Cho'lpon adabiyoti taqiq ostida bo'lgan sovet zamonlarida ham Turkiston uzra kezib yurdi. O'tgan asrning 80-90-yillariga kelib O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashgan yangi o'zbek ziyolilari avlodini yuzaga chiqardi, ularga ruhiy dalda, ma'naviy kuch berdi.

Jadidlarlardan keyingi uyg'onish davrini tamsil etuvchi bu yangi avlodning ijtimoiy-siyosiy maydondagi faoliyati mustaqillik kurashi bilan yakunlandi, mustaqillikka erishilishi ortidan ham O'zbekistonda hokimiyat jadidlarni qiro'in qilgan kommunistlarning vorisi sanalgan siyosiy kuchlar qo'lida qoldi.

So'ngi uyo'onish davrini bo'o'ish, muxolifat sifatida maydonga chiqqan jadidlarning yangi avlodini yo'qotish, qamatish, quvo'in qilish bilan kuzatilgan bu siyosiy vorislik O'zbekiston uchun chorak asrlik turo'unlikka ulanib ketdi.

Mustaqillikka erishgan davlat shu turo'unlik bois jadidlar orzu qilgan ilo'orlik, modernizatsiya, zamonaviy dunyo bilan uyo'unlashishdan ayri yo'lga tushdi, diktatura tio'i ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini, aholi ongini-da zaharlagan mamlakatga aylandi.

O'zbekistonda hokimiyat almashgan bo'lsa-da, siyosiy vorislik an'anasi barham topgani haqida gapirish qiyin. Iqtidordagi hokimiyat buni sobiq tuzum rahbariga ko'rasatilayotgan doimiy ehtirom misolida jamaotchilikka ochiq taqdim etyapti.

Karimov davridagi turg'unlik jadidlar xotirasini abadiyshlatirish va ular merosini o'rganish, ehtiromlash mutlaqo boshqa-boshqa narsalar ekanligini ko'rsatdi.

Marhum prezident uchun masalaning siyosiy tomoni – jadidlarning Rossiya bosqiniga qarshi ozodlik kurashi ramzi ekani muhim edi; jadidlarning ta'limga asoslangan inqilob o'oyasi esa, aksincha, diktator moqomidagi Karimovni xavotirda ushlagani haqiqatga yaqin.

Marhum Karimovning vorisi Prezident Shavkat Mirziyoyev bu borada qanday yo'l tutadi, hozircha noma'lum.

Bugun mamlakatda xalq ta'limi inqirozli davrni boshdan kechirayotgani, shunday vaziyatda milliy ta'lim uchun jon fido qilgan Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatilgani inobatga olinsa, Mirziyoyev uchun masalaning siyosiy emas, aynan ma'rifiy tomoni ustundek ko'rinadi.

Jadidlar oruzusidagi Turkiston ilg'or ta'limga, ma'rifatga, taraqqiyotga asoslangan edi; bu orzu qobiqni, chegaralarni, monarxiya va diktaturani inkor etadi.

Turkiston istiqboli haqida mushohada yuritgan jadidlarning shu xulosalarda to'xtaganiga ham yuz yil, bir asrdan oshmoqda.

Bu xulosalar esa bir asr o'tib ham hozirgi O'zbekiston uchun hamon dolzarb.

Mamlakatda so'nggi to'rt yilda yangi O'zbekiston haqida, yaqindan boshlab uchinchi Uyo'onish davri haqida gapirilmogda.

Ammo jadidlar faoliyati tarixi shuni ko'rsatadiki, uyo'onishni bayonotlar emas, jamiyatning taraqqiyotga intilish kurashi, fikrlar va o'oyalar xilma-xilligiga qorishgan siyosiy muhit, tanlovning mavjudligi belgilaydi.

REFERENCES

1. A.Fitrat. Adabiyot qoidolari. Adabiyot muallimlari va xavaslilari uchun qo'llanma. - Toshkent, 1926.
2. A.Fitrat. Adabiyot qoidolari/ Nashrga tayyorlovchi Sh.Turdiyev// Fan va turmush.1989.
3. A.Fitrat. Bir-ikki so'z. Fitrat tilshunoslik muammolari haqida // Turkiston. 2001-yil 12-yanvar.